

SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF FIKRLARI VA QUR'ONI KARIMNING TARJIMALARI XUSUSIDA

Saydullayev Nurmuhammad Ziyodulloh o'g'li

Annotatsiya

Qur'oni karim butun insoniyatga nozil etilgan buyuk ta'limot bo'lish bilan birga, uni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning imkoni yo'q. Odatda asar boshqa tillarga o'girilsa, uning ma'nolari tarjima qilinadi. Tarjima jarayoni mutarjimdan nafaqat til bilishni, kuchli bilim va tafakkurni ham talab etadi. Mazkur maqolada Qur'oni karimning boshqa tillarga qilingan tarjimalari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qur'oni karim, tarjima, tafsir, sharh, tarjimon, ma'nolar tarjimasi.

Qur'oni karim Sharqdagi arab bo'lmagan xalqlar tillariga ham tarjima va tafsir qilina boshlandi. Bunday tarjima va tafsirlardan eng yaxshisi mashhur olim Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiyning «Mavohib aliyya» («Oliy hadyalar») nomli asardir. Bu asar buyuk shoirimiz Alisher Navoiy iltimosi va moliyaviy yordami bilan yaratilgan va unga tuhfa qilingan. Bu tafsir 500 yil davomida madrasalarda «Tafsiri Husayniy» nomi bilan darslik sifatida qo'llaniladi. 1885-yili toshbosmada chop etilgan. Tafside Qur'on so'zma-so'z tarjima qilinib, keyin har qaysi betning yarmidan pastida oyatlar arab tilida qavs ichida jumla yoki bir-ikki so'z bilan beriladi hamda fors tilida sharhlanib, so'ng izohlar bilan tafsir qilinadi.

«Tafsiri Husayniy» Muhammad Sodiq ibn Mulla Shoh Ahmad Iymonquli tomonidan tatar tiliga tarjima qilinib, 1911-yilda Qozonda ikki jildda nashr etildi. «Tafsiri Husayniy» va uning tatarcha tarjimasi forsiy va turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar tomonidan Qur'onni sharhlar bilan o'rganishda katta ahamiyatga egadir. Bu kitob 1991-yilning boshlarida Moskvadagi tajriba bosmaxonada «Nur» (keyinchalik «Xazina», «Ruhafzo», hozirda «Shams») nashriyoti tomonidan noshir, olim, yozuvchi Asror Samadning xususiy mablag'i hisobiga qayta chop etildi va Respublikamizda 25 ming nusxada tarqatildi.

Manbalarda ko'rsatilishicha, Qur'onni XII-XIII asrda noma'lum olim eski o'zbek tiliga tarjima va tafsir qilgan. Tafsirning yagona nusxasi Qarshi shahrida topilgan bo'lib, «XII-XIII asrlarga oid O'rta Osiyo tafsiri» deb yuritiladi. Qo'lyozmaning bosh qismi yo'qolgan, tarjima va tafsir Kahf surasidan boshlanib, Qur'onning oxirigacha davom etgan.

Bu nodir tafsir faqat Qur'onning o'zini o'rganish uchungina emas, balki turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar tillari tarixini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega.



Qur'on Ovruponing bir qancha tillariga, jumladan, rus tiliga tarjima qilingan. Oxirgi ruscha tarjima akademik I.Yu.Krachkovskiy qalamiga mansub bo'lib, 1963 va 1986-yillarda Moskvada nashr etilgan. Bu tarjima asosida Qur'on haqida yuzlab ilmiy-tadqiqiy asarlar yozilib, bu muqaddas kitob har tomonlama o'rganilgan.

Qur'oni karimning uyg'urcha tarjimasi Muhammad ibn Alloma al-Hoj domla Solih Koshg'ariy Ortujiy tomonidan tarjima qilingan, 1986-yilda Pekinda nashr etilgan. Oyatlarning mazmunini tushuntirish uchun lozim bo'lgan ayrim so'z va jumlar qavs ichida berilgan.

Qur'onning birinchi marta turk tiliga qilingan tarjimasi 1987-yili Saudiya Arabistoni qirolligi tomonidan Madinada lotin alifbosiga asoslangan turk imlosida nashr etildi. Tarjimonlar Ali O'zek, Xayriddin Karaman, Ali Turgut va boshqalardir. Tarjimada ayrim so'zlar qavs ichida qo'shib ketilgan, ba'zi oyatlar oxirida juda qisqa izoh berilgan.

Rossiyada Qur'oni karimni tadqiq qilish ishlari avvaliga Ovrupa olimlarining tarjimalarini o'girish bilan boshlangan, o'sha paytdagi barcha ruscha tarjimalar fransuz tilidan amalga oshirilgan. Qur'oni karim ma'nolarini ilk marta 1716-yili Pyotr Postnikov ruschaga tarjima qilgan. «Al-Koran o Magomete ili zakon turetskiy» deb nomlangan bu tarjima Sankt-Peterburgda 1716-yil va 1790-yillari ikki marta nashr etilgan. Qur'oni karim ma'nolarining M.Veryovkin qilgan ikkinchi tarjimasi ham «Kniga al-Koran arabyanina Magomeda» nomi bilan 1790-yili ikki jildli qilib Sankt-Peterburgda chop etilgani. Keyinchalik uni A.Kalmikov inglizchadan, atoqli rus shoiri Aleksandr Pushkin va olim K.Nikolay fransuzchadan, D.Boguslavskiy bevosita arabchadan tarjima qilgan.

XIX-XX asrlarda Qur'oni karim ma'nolarini rus tiliga o'girish bo'yicha ishlar yanada kuchayib ketdi. Qozon sharq tillari universiteti rektori, aslida missioner bo'lgan rus sharqshunosi G.Sablukov (1804-1880) Qur'oni karim ma'nolarini tarjima qilib, 1877-1879-yillari «Koran» nomi ostida ikki jildli qilib bostirdi. Uning 1907-yilgi nashrida har sahifada arabcha matn, qarshisida ruscha matn berilgan.

Sobiq Ittifoq davrida Qur'oni karim haqida jiddiy izlanishlar olib borganlarning eng e'tiborlisi akademik I.Yu.Krachkovskiy bo'ldi. Uning arabchadan o'giran va o'limidan so'ng 1963-yili chop etilgan «Koran. Pervod i kommentariya» kitobi 1983 va 1990-yillari qayta nashr etildi. Bulardan tashqari, Qur'oni karimning Valeriya-Imon Poroxova qilgan nazmiy tarjimasi, M.Osmanov, E.Kuliyev va boshqalarning tarjimalari ham bor.

Yurtimizda o'sha paytlarda Qur'oni karim ma'nolarining tatarcha tarjimalari keng tarqalgan. Qur'onni ilk bor tatar tiliga taniqli dinshunos Abdunosir Kursaviy (1776-



1812) tarjima qilgan. Bularning bir necha variantlari hozirda Qozon kutubxonalarida saqlanmoqda. Keyinroq, kitobning nisbatan to'la tarjimasini tatar tarixchisi va ulamosi Husayn Amirxonov (1814-1893) amalga oshirdi. 1910-1911-yillarda Qozonda tatar ulamosi va shoiri Muhammad Sodiq Imonqulining (1870-1932) ikki jildli «Tasxilil-bayon fit-tafsirul-Qur'an» («Qur'on tafsirini osonlashtirib tushuntirish») kitobi nashr etildi. XX asr boshlarida shayxulislom Hamidiyning «Al-itqon fit-tarjimatul-Qur'an» (Qozon, 1907), No'moniyning ikki jildli «Коръэн тафсире» kitoblari ham nashr etildi, «Al-Itqon» Qozondan tashqari Qatar, Yaponiya va Turkiyada ham chop etilgan Hozirgi o'zbek tiliga Qur'on va uning ayrim suralarini izohlari bilan tarjima qilish ilk marta Niso surasining bir qismining «Fan va turmush» jurnalida (1989- yil, 8-9-sonlarida) Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasida e'lon qilish bilan boshlandi. «Sharq yulduzi» (1990-yil 3-sonidan boshlab) Alouddin Mansur tomonidan tayyorlangan o'zbekcha izohli tarjimasini e'lon qildi. Alouddin Mansur tarjimasini ancha tuzatish, to'ldirishlar bilan mukammal holga keltirib, 1992-yilda «Cho'lpon» nashriyoti tomonidan kitob holida nashr etildi.

Sharqshunos olim, Iordaniya Qirolligi akademiyasining a'zosi Shamsiddinxon Boboxonov Qur'oniing 30-porasini tarjima va izohlar bilan 1991-yilda chop ettirdi. Aynan shu 30-pora Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonidan ham mukammal tarjima va izohlar bilan 1991-yilda nashr etildi.

Avvallari asl Qur'on qolib, uning ma'nolari tarjimasiga suyanib qolinmasin, tarjimalardagi ixtiloflar Qur'on haqida ixtiloflarga olib bormasin, odamlar tarjimaga suyanib, arab tilini o'rganmay qo'ymasin kabi mulohazalar Qur'on ma'nolari tarjimasiga rasmiy ruxsat berilmagan edi.

Keyingi davrda arab tilini biladigan musulmonlardan ko'ra u tilni bilmaydigan musulmonlar ko'payib ketgan edi. Ularning barchasiga Qur'oni karimni tushunadigan darajada arab tilini o'rgatish qiyin. Buning ustiga, dunyoning g'ayrimusulmon xalqlarini Islomga da'vat qilish ehtiyoji ham turibdi. Qur'oni karim ma'nolarini noto'g'ri tarjima qilib, ko'plab sonda tarqatish holatlari ham uchraydi. Bu – katta xatar. Shu omillarni e'tiborga olgan ulamolar Qur'oni karim ma'nolarining islomiy tarjimasini zarurligi haqida fatvo chiqardilar, bunday tarjima uchun kerakli shartlarni bayon qildilar. Ma'nolar tarjimasiga quyidagi shartlar qo'yilgan: 1. Tarjimon arab tilini nihoyatda yaxshi bilishi bilan birga, tarjima qilinayotgan tilni ham juda yaxshi bilishi lozimligi; 2. Tarjimani «Qur'on tarjimasini» emas, balki «Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini» deb atash va tushunish lozimligi. Chunki Qur'oni karimni ayni o'zidek tarjima qilish mutlaqo iloji yo'q. Nafaqat



tarjima, balki arab tilida ham Qur'oni karimning komil matni u yoqda tursin, biror oyatiga o'xshash matnni keltirish ham amrimahol; 3. Mazkur ma'nolar tarjimasidan faqat Qur'oni karim ma'nolarini tushunishdagi yordamchi omil sifatida foydalanish mumkinligi. Ushbu ma'nolar tarjimasini ibodatda qiroat qilish, ulardan hukm chiqarishga harakat qilish mutlaqo mumkin emasligi; 4. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini yozganda, albatta, arabcha oyatlar bilan birga yozish shart. Bunda har doim tarjimaning aniqligini tekshirish imkoni bo'ladi.

Qadimda Qur'oni karimning juda ko'plab tarjimalari amalga oshirilgan, ammo mazkur tarjimalarning ko'plari bizning davrimizgacha yetib kelmagan.

Bizgacha yetib kelgan Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini haqida ustoz Muhammad Hamidulloh quyidagilarni yozadilar: «Hijriy to'rtinchi asrda podshohlik qilgan Mansur ibn Nuh Somoniy hijriy 345-sanada turkistonlik katta ulamolardan bir jamoasiga Qur'oni karimning hammasini fors, sharqiy va g'arbiy turk tillariga tarjima qilishga amr etdi. Tabariy tafsirining xulosasini o'sha tarjimalarga ziyoda qilishga ham farmon berdi. Alloh taologa hamd bo'lsinki, bu tarjimalar bizga yetib keldi va ular Tehron hamda Istambulda chop etildi».

Adabiyotlar:

1. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. Тузатилган ва тўлдирилган қайта нашр. – Тошкент: Нилол nashr, 2018. – 616 б.
2. Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий. Тафсири Ирфон. 1-китоб. – Тошкент: Sharq, 2019. – 736 б.
3. <https://medinaschool.org/library/creed/koran/perevod-korana-porohovoj>

